

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.10.2025.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**TURAXUJAYEVA NILUFAR NAZIRJANOVNA**

**MAXSUS TRIKOTAJ MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH VA ASSORTIMENTINI KENGAYTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan - 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

<b>Turaxujayeva Nilufar Nazirjanovna</b> Maxsus trikotaj mahsulotlari texnologiyasini takomillashtirish va assortimentini kengaytirish .....	3
<b>Турахужаева Нилуфар Назиржановна</b> Совершенствование технологии и расширение ассортимента трикотажных изделий специального назначения .....	23
<b>Turaxujayeva Nilufar Nazirjanovna</b> Improving technology and expanding the range of knitted products for special purposes.....	45
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works</b> .....	49

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.10.2025.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**TURAXUJAYEVA NILUFAR NAZIRJANOVNA**

**MAXSUS TRIKOTAJ MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH VA ASSORTIMENTINI KENGAYTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan - 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4919 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://namdtu.uz/>) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xanxadjayeva Nilufar Raximovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Aliyeva Dilbar Ganiyevna**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Allaniyazov G'ulomjon Sherniyazovich**  
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2025.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 21-avgust soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-19-96. e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz), Namangan davlat texnika universiteti 15-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№46-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "08" avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil 17-maydagi №50-raqamli reestr bayonnomasi).



**Q.M.Xoliqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, texnika  
fanlari doktori, professor

**X.T.Bobojanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

**J.K.Yuldashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (PhD dissertatsiyasi avtoreferati)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda maxsus maqsadlarda foydalaniladigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi kata sanoatlarda, biri hisoblanadi. Butun dunyo iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishi sababli, keyingi yillarda to'qimachilik sanoatida maxsus trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda maxsus kiyim mahsulotlar bozori to'qimachilik va tikuvchilik sanoatining bir qismi bo'lib, ish kiyimlari, poyabzal va bosh kiyimlaridan iborat. Maxsus kiyim mahsulotlari teri, to'qimachilik va bir qator sintetik materiallardan ishlab chiqariladi. 2024 yilda global ixtisoslashtirilgan mahsulotlar bozori 65,124,2 million dollarga baholanadi, 2024 yildan 2031 yilgacha kutilayotgan yillik o'sish hajmi 4,3% ni tashkil qiladi, dunyo bo'yicha kimyoviy himoya kiyimlari bozori hajmi esa 1,57 milliard dollarga yetdi, 2025 yildan 2033 yilgacha kutilayotgan yillik o'sish hajmi 4,81% tashkil etishi kutilmoqda. Shu bois, keyingi yillarda to'qimachilik sanoatida mahsulot ishlab chiqarishda maxsus trikotaj mahsulotlari uchun kimyoviy tolalar va iplardan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda kimyoviy tolalar va iplar asosida maxsus trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish uchun resurs tejovchi texnologiyalar va texnik vositalarning yangi ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqish va tadbiq etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, yuqori texnologiyali kimyoviy tolalardan foydalangan holda texnologiyani takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borish, maxsus trikotaj mahsulotlari turlarini kengaytirishda tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, texnik maqsadlarda va kundalik hayotda foydalaniladigan maxsus trikotaj mahsulotlarining texnologik jarayonlari, ko'rsatkichlari va xususiyatlarini asoslash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, sifatli, raqobatbardosh va eksportbop, import o'rnini bosuvchi tayyor texnik to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va muayyan natijalarga erishish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida, jumladan, "... Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish..."<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, yangi turdagi yuqori texnologiyali xomashyodan samarali foydalanish, texnologiyani takomillashtirish, maxsus trikotaj mahsulotlari turlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 5-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

maydagi PF-5989-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 16-sentabrdagi PQ-4453-sonli “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalalar rivojlanishning II. “Energiya, energiya va resurslarni tejash” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganganlik darajasi.** Hozirgi kunda AQSh, Xitoy, Rossiya, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh issiqlikka, zarbaga, yemirilishga chidamli kimyoviy tolalarni yaratish bo‘yicha jadal ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunday kimyoviy tolalar maishiy, mudofaa va texnik maqsadlarda to‘qimachilik va trikotaj mahsulotlariga qayta ishlash uchun bir vaqtning o‘zida gigiyena talablariga ham javob beradi. Xorijda kimyoviy sintetik tolalar, ulardan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va tadqiq qilish kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan S. Kvolek (AQSh), E.P. Lavrentyeva, E.V. Fokina, I.V. Krasina, G.A.Budnitskiy, R.N.Sabirzyanova, Yu.A.Mixaylin (Rossiya), R.B.Kabir (Hindiston), R.Marissen (Niderlandiya) va boshqalar.

Respublikamizda texnik trikotaj sohasida O‘zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Bulardan: M.M.Muqimov, N.R.Xanxadjaeva va boshqalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida trikotaj ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va assortimentini kengaytirish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish, ularni sifatini yaxshilash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lishiga qaramasdan yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh kimyoviy iplardan foydalangan holda maxsus mahsulotlar uchun trikotaj olishni tadqiq qilish kabi muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat texnika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” loyihasining “Ilmiy tadqiqot sifatini oshirish” REP – 03032022/193 “Tibbiy maqsadlarda foydalanish uchun ipak chiqindilaridan antimikrob noto‘qima mahsulotlar ishlab chiqarish” dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mashina imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh kimyoviy iplardan foydalanib maxsus xossalari

mahsulotlar uchun mo'ljallangan trikotaj olish texnologiyasini takomillashtirish va assortimentni kengaytirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

maxsus trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishning jahon bozori va xalqaro standartlarini o'rganish va tahlil etish;

trikotaj mashinalarida maxsus trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish;

olingan namunalarning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tahlil etib, ishlab chiqarish va qo'llash sohalari bo'yicha tavsiyalar berish;

kimyoviy iplardan olingan maxsus trikotaj tuzilishini to'qimaning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlariga ta'siri bo'yicha bog'liklik qonuniyatlarini asoslash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinalari, maxsus mahsulotlar uchun trikotaj to'qimalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** maxsus trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni, yassi fang mashinalari, to'qimalarning tuzilishi, texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari tadqiqi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida trikotaj texnologiyasi, to'qimachilik materialshunosligi, nazariy va eksperimental baholash, tadqiqot natijalarini matematik qayta ishlash va statistik tahlil qilish, to'qima tuzilishi elementlarining xususiyatlarga ta'sirini aniqlash hamda me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh kimyoviy tolalardan tarkib topgan yuqori molekulyar polietilen birikmali hamda para-aramid sintetik iplar asosida ikki ignadonli yassi fang mashinalarida trikotaj mato to'qish texnologiyasi takomillashtirilgan;

olingan maxsus trikotaj matolarining mustahkamlik xususiyatlari hamda para-aramid ipidan tayyorlangan va olovbardoshlilik ishlovi berilmagan trikotaj namunalari qiyin yonuvchi materiallar xususiyatiga ega ekani aniqlangan;

maxsus trikotaj matolarining mexanik xususiyatlarini aniqlashga moslashtirilgan trikotaj halqalariga gorizental va vertikal cho'zuvchi kuchlarining ta'siri natijasida hosil bo'ladigan taranglik kuchlarini aniqlaydigan matematik model olingan;

yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh trikotaj matolari uchun halqa ipi uzunligi, gorizental bo'yicha zichlik, halqa qadami ko'rsatkichlariga regression matematik model yordamida ratsional qiymatlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ikki ignadonli trikotaj mashinasida maxsus trikotaj to'qimalarini olish uchun dastur ishlab chiqilgan;

yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh kimyoviy iplardan, trikotaj to'quv mashinalarida bir va ikki qavatli to'qimalar olish texnologiyasi asosida maxsus trikotaj matolarining namunalari olingan;

yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh kimyoviy iplardan tayyorlangan

trikotaj matosining namunalari texnologik parametrlari va fizik-mexanik xossalari aniqlangan;

olingan trikotaj mato namunalari ishlab chiqarish korxonasi sharoitida olingan va maxsus mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish uchun tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumiy xulosalar, yuqori mustahkamlikka ega va olovbardosh kimyoviy iplardan olingan trikotaj to'qimalari olinganligi va amaliyotga joriy etilishi bilan, shuningdek, olingan namunalarda zamonaviy sinov laboratoriya dastgohlarida hamda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda tekshirilganligi, nazariy va amaliy olingan natijalarni bir-biriga o'zaro mosligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuqori texnologiyali kimyoviy iplar asosida mustahkamligi yuqori bo'lgan trikotaj ishlab chiqarish texnologiyasi jarayonining parametrlarini aniqlash, ularning optimal qiymatlarini asoslash va kimyoviy iplardan foydalanish maxsus trikotajning fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqori mustahkamlikdagi va olovbardosh kimyoviy iplardan maxsus trikotaj mahsulotlari uchun xomashyo sifatida foydalanish yo'llarini aniqlanganligi va tadqiqot natijalaridan bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari uchun o'quv-uslubiy material sifatida foydalanishdadir. Dissertatsiya ishining olingan natijalari maxsus trikotaj mahsulotlarining assortimentini kengaytirilganligi va ishlab chiqarish amaliyotida qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Trikotaj mashinalarida yuqori texnologiyali kimyoviy iplardan foydalangan holda maxsus trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Yuqori molekulyar polietilen birikmali kimyoviy iplardan foydalanib yangi turdagi maxsus trikotaj mahsulotlari uchun trikotaj to'qimalarini olish texnologiyasi "OSIYO FAROVON LIDER" MChJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi ma'lumotnomasi №03/25-1018, 14.05.2025 y.). Natijada trikotaj-to'quv mashinasida xomashyo sarfi kam va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan trikotaj to'qima variantlarini ishlab chiqarilgan hamda joriy etish natijasida 1000 m<sup>2</sup> mato ishlab chiqarishda (704,3 kg) xomashyo sarfi hisobiga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 2 502 500 so'mni tashkil etgan.

Para-aramid ipidan foydalanib, asos, hosilaviy va aralash to'qimalardan olingan maxsus trikotajning yangi assortimenti "RIVIERA TEXTILE" MChJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi ma'lumotnomasi №03/25-1018, 14.05.2025 y.). Natijada trikotaj-to'quv mashinasida xomashyo sarfi kam va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan trikotaj to'qimalarini ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida 1000 m<sup>2</sup> mato ishlab chiqarishda (422 kg) xomashyo sarfi hisobiga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 18 315 900 so'mni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 7 ta xalqaro (1 tasi Web of Science) va 2 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqolalar, jumladan 4 ta respublika va 3 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 1 ta EHM dasturiga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 131 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Maxsus mahsulotlar bozori, assortimenti va olish texnologiyalari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida maxsus mahsulotlar bozori holati tahlili yoritilgan, uni rivojlantirish istiqbollari va ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan, maxsus trikotaj mahsulotlarini olish usullari sanab o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining bugungi holati, trikotaj sanoatining to‘qimachilik sanoatidagi o‘rni, maxsus trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda kimyoviy tolali iplardan samarali foydalanish, trikotaj to‘qimalarining tuzilishlari va kimyoviy tolalardan mahsulotlar olish usullari kabi masalalarga ham e‘tibor qaratilgan.

Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijalari asosida, yuqori mustahkamlikga ega kimyoviy iplardan foydalangan holda maxsus trikotaj mahsulotlari texnologiyasini takomillashtirish va assortimentini kengaytirish hamda uni ilmiy asoslash masalalari dissertatsiya ishining vazifalasi etib belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Maxsus trikotaj mahsulotlarini olish texnologiyasini tadqiq etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida mavjud yuqori mustahkamlikga ega va olovbardosh kimyoviy tolalar va iplarning turlari va texnik tavsiflari o‘rganilgan, maxsus trikotaj mahsulotlarini olish uchun trikotaj mashinasini tanlash asoslab berilgan, kimyoviy kalava iplardan olingan trikotajning tuzilishi, grafik yozuvlari va ishlab chiqarilishining texnologik jarayonlari keltirilgan.

Tahlil qilinib, kimyoviy iplardan maxsus trikotaj olish uchun zamonaviy yangi avlod yassi fang mashinalari kompyuter bilan jihozlangan bo‘lib, tegishli dasturiy ta‘minot asosida ishlaydi. Bunday dasturlar trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlarini keng ochib beradi.

Ushbu tadqiqot ishida yassi ignadonli trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlari o‘rganilib, yuqori mustahkamlikdagi “UHMWPE” yuqori molekulyar polietilen va “VICWA” paraaramid kimyoviy iplari asosida yangi turdagi maxsus trikotaj olindi.

Ilmiy tadqiqot ishini bajarish jarayonida “OSIYO FAROVON LIDER” MChJ korxonasi sharoitida to‘quv tsexiga o‘rnatilgan “GUOSHENG” GSJX-2-52 rusumli va “TTYESI” qoshidagi laboratoriyada “LONG XING” LXA252 ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinalarida tajribalar olib borilgan.

“UHMWPE” hidsiz, ta‘msiz va toksik emas. U yuqori zichlikdagi polietilenning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlagan, shuningdek u kislotalar va ishqorlarga, ko‘plab organik erituvchilarga chidamlidir. Oksidlovchi kislotalardan tashqari oyuvchi kimyoviy moddalarga nisbatan yuqori qarshilikka ega; namlikni juda kam singdiradi, juda past ishqalanish koeffitsientiga ega va yedirilishga yuqori darajada chidamli, ba‘zi hollarda uglerodli po‘latdan 15 barobar ko‘proq yedirilishga bardoshli va uning ishqalanish koeffitsienti neylon va atsetaldan sezilarli darajada past. Uning erish darajasi 130-136 °C ni tashkil qiladi, uzoq vaqt davomida 80-100 °C dan yuqori haroratlarda “UHMWPE” tolali mahsulotlarini ishlatish tavsiya etilmaydi. -150 °C dan past haroratlarda mo‘rtlashadi.

Yuqori mustahkamlik xususiyatlariga qo‘shimcha ravishda, “UHMWPE” tolasining og‘irligi juda engil va ultrabinafsha nurlanishiga chidamli. Chet elda ushbu turdagi tola va undan olinadigan ip, gazlama, trikotaj mahsulotlar tobora ko‘proq ishlab chiqarilmoqda va inson faoliyatining turli sohalarida, ishlab chiqarish sanoatida, shuningdek, maishiy va maxsus maqsadlarda keng qo‘llanilmoqda.


“VICWA” ipining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning yong‘inga chidamliligi 29% ni tashkil qiladi, u yonadi, lekin olov ta‘sir etmayotganida o‘z-o‘zini o‘chirish, ya‘ni olov tarqalishiga manba bo‘lmaydi. Parchalanish harorati – 450 °C, 240 °C haoratda 3 soatdan keyin qoldiq mustahkamligi – 80%, yuvishga chidamliligi 95 °C – ISO 105 C04 (DIN 54011) talablariga mos keladi va 3-sinfga mansub, ISO 105 X12 (DIN 54021) ga mos keladigan edirilishga chidamliligi 3 klass. Uzilish kuchi 44-660 N, uzilishdagi uzayishi 3-5%.

Ipnig kamchiliklariga ultrabinafsha nurlanishiga nisbatan past chidamlilik va uzoq vaqt quyosh nuri ta‘sirida mustahkamligini yo‘qotishini keltirish mumkin.

Ushbu yuqori mustahkamlikga ega xomashyodan olingan mahsulotlar yuqori pishiqlikga ega bo‘ladi va o‘tkir qirrali asboblar bilan ishlashda ko‘llash mumkin, kesish va yirtishga chidamli bo‘ladi.


Ushbu tadqiqot ishida xomashyo sifatida yuqori mustahkamlikka ega “UHMWPE” va olovbardosh “VICWA” iplaridan foydalanib, ikki ignadonli “GUOSHENG” GSJX-2-52 va “LONG XING” LXA252 yassi fang trikotaj to‘quv mashinalarida 8 xil turdagi trikotaj mato namunalari olindi. Bunda, “UHMWPE” va “VICWA” iplaridan trikotaj namunalarning mos ravishda №1 va №6 variantlari “glad” o‘rilishida, №2 va №7 variantlari “lastik 1+1” o‘rilishida, №3 va №8 variantlari lastit 2+1 va hosilali glad to‘qimalarini galma gal qatorlatib bir igna qadamiga surilgan holda to‘qish yo‘li bilan olingan aralash trikotaj to‘qimasi asosida olingan.

№3 va №8 variantdagi trikotaj namunalarning tashqi ko‘rinishi, grafik yozuvi va tuzilishi 1-rasmda keltirilgan. №4 variantdagi trikotaj namunasi hosilali glad 1+1 to‘qimasini ikki qatlamli to‘qimaga har ikki tomonining platina iplari orasidan 12,5 teks chizikli zichlikdagi bog‘lovchi ipni to‘qib birlashtirish orqali olingan.



1-rasm. № 3 va № 8 variantdagi trikotaj namunalarining tashqi ko‘rinishi (a, b), grafik yozuvi (c) va tuzilishi (d)

“UHMWPE” ipidan olingan №4 variantdagi trikotaj namunasining tashqi ko‘rinishi, grafik yozuvi va tuzilishi 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. №4 variantdagi trikotaj namunasining tashqi ko‘rinishi (a), grafik yozuvi (b) va tuzilishi (c)

№5 variantdagi trikotaj namunasi hosilali glad 1+1 to‘qimasini ikki qatlamli to‘qimaga har ikki tomonining platina iplari orasidan 12,5 teks chiziqli zichlikdagi bog‘lovchi ipni to‘qib birlashtirish orqali olingan, faqat №4 variantdagi to‘qimadan farqli ravishda to‘qishda trikotajning bir tomoni “UHMWPE” ipidan, ikkinchi tomonida esa chiziqli zichligi 50 teks bo‘lgan nitron ipidan foydanlanilgan.

“UHMWPE” va nitron ipidan olingan №5 variantdagi trikotaj namunasining tashqi ko‘rinishi, grafik yozuvi va tuzilishi 3-rasmda keltirilgan.

Ushbu tadqiqot ishida yassi ignadonli mashinalarning texnologik imkoniyatlari o‘rganilib, yuqori mustahkamlikdagi “UHMWPE” ipi asosida trikotaj namunalarining 5 ta varianti va “VICWA” paraaramid ipidan 3 ta variant ishlab chiqildi. Trikotaj to‘qimalarining kombinatsiyasi va tuzilishiga o‘zgarishlar kiritish bir-biridan keskin farq qilishi mumkin bo‘lgan hamda texnologik parametrlari va fizik-mexanik xususiyatlariga ta‘sir ko‘rsatadigan yangi trikotaj to‘qimasi turlarini ishlab chiqishga imkon beradi, shu bilan trikotaj mahsulotlarini qo‘llash doirasi va sohasini kengaytiriladi.



3-rasm. №4 variantdagi trikotaj namunaning tashqi ko'rinishi (a), grafik yozuvi (b) va tuzilishi (c)

Bu jarayon texnik trikotaj va maxsus trikotaj mahsulotlari sohasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, yuqori texnologiyali iplarning yangi turlaridan foydalanish mavjud trikotaj assortimenti va ulardan foydalanish sohalarini kengaytiradi.


Dissertatsiyaning **“Maxsus trikotajning texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish”** deb nomlangan uchinchi bobida yuqori mustahkamlikdagi iplardan korxonada sharoitida ishlab chiqarilgan maxsus trikotaj namunalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash va tahlil etishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida mustahkamlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va olovbardosh maxsus trikotaj mahsulotlari sohasida izlanishlar olib borish uchun korxonada chiziqli zichliklari 107,8 teks (970 den) va 55,6 teks (500 den) bo'lgan yuqori molekulyar polietilen birikmali “UHMWPE” iplaridan, chiziqli zichligi 50 teks bo'lgan nitron ipidan va chiziqli zichligi 66,6 teks (№30/2S) bo'lgan “VICWA” 100% paraaramid ipidan 8 ta variantda trikotaj namunalari olindi. Ko'rsatkichlar va xususiyatlar eksperimental tarzda aniqlandi. Barcha namunalar bir xil sharoitda "GUOSHENG" GSJX-2-52 va “LONG XING” LXA252 ikki ignadonli trikotaj mashinalarida ishlab chiqilgan. Eksperimental tarzda olingan trikotaj namunalarining texnologik parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


**Maxsus trikotaj namunalarining texnologik ko'rsatkichlari**

Variantlar, №	Ip markasi	Chiziqli zichlik, teks	Halqa qadami, A mm	Halqa qatori balandligi B, mm	Gorizont bo'yicha zichlik, P <sub>g</sub> (halqa)	Vertical bo'yicha zichlik, P <sub>v</sub> (halqa)	Halqa ipi uzunligi, L(mm)	Yuza zichligi, Ms (g/m <sup>2</sup> )	Qalinlik, T (mm)	Hajm zichligi, δ (mg/sm <sup>3</sup> )
1	«UHMWPE»	107,8	1,43	0,9	35	55	5	412,2	1,2	343,5
2		107,8	1,43	0,83	35	60	4,8	712	1,8	395,6
3		107,8	1,7	1,11	30	45	5,8	704,3	2,3	306,2
4		55,6	1	0,83	50	60	3	649	1,6	393,1
5		55,6	1,11	0,9	45	55	3,6	629,4	1,7	370,2
6	«VICWA»	66	1,7	1,25	30	40	6	237	0,9	263,3
7		66	1,7	1,25	30	40	6,2	482	1,7	283,5
8		66	1,7	1,7	30	30	6,2	422	1,7	248,2

4-rasm va 5-rasmda “UHMWPE” va “VICWA” iplaridan olingan trikotaj namunalarning yuza va hajm zichliklarining o‘zgarish diagrammalari keltirilgan.



4-rasm. “UHMWPE” ipi asosida olingan trikotaj namunalarning yuza zichligi Ms ( $\text{g/m}^2$ ) va hajm zichligi  $\delta$  ( $\text{mg/sm}^3$ ) o‘zgarish diagrammasi



5-rasm. “VICWA” paraaramid ipi asosida olingan trikotaj namunalarning yuza zichligi Ms ( $\text{g/m}^2$ ) va hajm zichligi  $\delta$  ( $\text{mg/sm}^3$ ) o‘zgarish diagrammasi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “UHMWPE” iplari asosida olingan trikotaj namunalarning yuza zichligi  $412,2 \text{ g/m}^2$  dan  $712 \text{ g/m}^2$  gacha o‘zgargan va bu o‘zgarish 42% ni tashkil qiladi. Hajm zichligi  $306,2 \text{ mg/sm}^3$  dan  $395,6 \text{ mg/sm}^3$  gacha o‘zgargan va 22,6% ni tashkil qilgan (4-rasm).

“VICWA” paraaramid iplari asosida olingan trikotaj namunalarning yuza zichligi  $237 \text{ g/m}^2$  dan  $482 \text{ g/m}^2$  gacha o‘zgargan va bu o‘zgarish 51% ni tashkil qiladi. Hajm zichligi  $248,2 \text{ mg/sm}^3$  dan  $283,5 \text{ mg/sm}^3$  gacha o‘zgargan va 12,5% ni tashkil qilgan (5-rasm).

## 2-jadval


### Maxsus trikotaj namunalarning fizik-mexanik xususiyatlari

Variantlar, №	Uzilish kuchi, P (N)		Uzilishdagi cho‘zilish, L (%)		6N dagi cho‘zilish, %		Deformatsiya, (%)				Havo o‘tkazuvchanlik, B ( $\text{sm}^3/\text{sm}^2 \text{ c}$ )	Suv shimuvchanlik, %	Ishqalanish, ayl.
	Bo‘yiga	Eniga	Bo‘yiga	Eniga	Bo‘yiga	Eniga	Bo‘yiga		Eniga				
							Qaytar, $\epsilon_{0II}$ (%)	Qaytmas, $\epsilon_{HII}$ (%)	Qaytar, $\epsilon_{0III}$ (%)	Qaytmas, $\epsilon_{HIII}$ (%)			
1	907,5	765	28,5	30,5	2,19	2,55	86	14	94	6	29,52	1,89	>35587
2	891	857	30,5	55	1,62	3,9	78	22	95	5	29,4	1,49	>35587
3	1140	1430	30,5	30,5	2,25	3,6	93	7	63	37	29,52	2,32	>35587
4	1166	1397	18,5	17	1,65	1,95	89	11	74	26	90,7	2,38	>35587
5	845	1165	19	19	1,65	1,8	85	15	83	17	64,7	2,04	>35587
6	883	573	13	27	1,65	2,79	79	21	57	43	358,9	2,07	>35587
7	2155	443	9,5	51,5	0,84	8,55	82	18	77	23	186,9	2,92	>35587
8	1838	728	10	24	0,9	4,2	80	20	50	50	255,9	3,21	>35587


Ishlab chiqarilgan maxsus trikotaj mahsulotlari namunalari “CENTEXUZ” laboratoriyasida standart usullar asosida uzilish kuchi, uzilishdagi cho‘zilish, 6N da

cho‘zilish, deformatsiya, havo o‘tkazuvchanlik, suv shimuvchanlik va ishqalanishga chidamlilik kabi fizik-mexanik xususiyatlari bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. Olingan sinov natijalari yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot vaqtida “UHMWPE” va “VICWA” iplari asosida olingan trikotaj namunalarining bo‘yiga va eniga uzilish kuchi P (N) ning o‘zgarish diagrammalari 6-rasm va 7-rasmda ko‘rsatilgan.



**6-rasm. “UHMWPE” iplari asosida olingan trikotaj namunalarining bo‘yiga va eniga uzilish kuchi P (N) ning o‘zgarish diagrammasi**




**7-rasm. “VICWA” iplari asosida olingan trikotaj namunalarining bo‘yiga va eniga uzilish kuchi P (N) ning o‘zgarish diagrammasi**


“UHMWPE” iplari asosida olingan maxsus trikotaj namunalarining uzilish kuchi bo‘yiga 845 N dan 1140 N gacha, eniga esa 760 N dan 1430 N gacha o‘zgargan va bu o‘zgarish bo‘yiga 26% ni, eniga 47% ni tashkil qiladi.

“VICWA” iplari asosida olingan maxsus trikotaj namunalarining uzilish kuchi bo‘yiga 883 N dan 2155 N gacha, eniga esa 443 N dan 728 N gacha o‘zgargan va bu o‘zgarish bo‘yiga 59% ni, eniga 40% ni tashkil qiladi.

“UHMWPE” va “VICWA” iplari asosida olingan trikotaj namunalarining bo‘yiga va eniga uzilishdagi cho‘zilishining variantlar bo‘yicha o‘zgarishi diagrammasi 8-rasm va 9-rasmda keltirilgan.



**8-rasm. “UHMWPE” iplari asosida olingan trikotaj namunalarining bo‘yiga va eniga uzilishdagi cho‘zilishi L (%)ning o‘zgarish diagrammasi**



**9-rasm. “VICWA” iplari asosida olingan trikotaj namunalarining bo‘yiga va eniga uzilishdagi cho‘zilishi L (%)ning o‘zgarish diagrammasi**

Maxsus trikotaj namunalarining uzilishdagi cho‘zilishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “UHMWPE” iplari asosida olingan trikotaj namunalarining bo‘yi bo‘yicha uzilishdagi cho‘zilishi 18,5-30,5%, eni bo‘yicha


uzilish cho‘zilishi esa 17-55% ni tashkil qiladi (8-rasm) hamda bo‘yi bo‘yicha 39% va eni bo‘yicha 69% oralig‘ida o‘zgaradi.

“VICWA” ipi asosida olingan trikotaj namunalarining uzilishdagi cho‘zilishi bo‘yiga 9,5-13%, eniga 24-51,5% ni tashkil etdi (9-rasm) hamda bo‘yiga 27% va eniga 53% oralig‘ida o‘zgaradi.

To‘qimalarning fizik-mexanik xususiyatlari taxlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘qima tarkibiga kiritilgan naqsh elementlari uni xususiyatlariga xam o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Barcha ko‘rsatkichlarni eniga va bo‘yiga ma‘lum bir tomonga o‘zgartirish u yoki bu xususiyatini kuchaytirishi yoki pasaytirishi mumkin. Bu holatdan maqsadli foydalanish to‘qima turlarini qanday maqsadlarda qo‘llanilishiga bog‘liq. Shuni inobatga olish kerakki, xususiyatlar o‘zgarishiga qarab, to‘qimalarni maxsus maqsadlarda texnik trikotaj mahsulotlari uchun ham tavsiya qilish mumkin.

Trikotaj to‘qimasining uning mexanik xossalariga uzilish kuchi, uzilishdagi cho‘zilish va deformatsiya ta‘sirida ta‘sirini aniqlash maqsadida №7 va №8 namunalar halqalariga ta‘sir qiluvchi kuchlar bo‘yicha nazariy tahlil o‘tkazildi.

Trikotaj cho‘zilganda halqalarining tuzilmasi bo‘yicha bo‘yiga – vertikal yo‘nalishda va eniga – gorizontal yo‘nalishda cho‘ziladi. №8 variantdagi trikotaj namunasi, ya‘ni lastik 2+1 va hosilali glad to‘qimalarini galma gal qatorlatib bir igna qadamiga surilgan holda to‘qish yo‘li bilan olingan aralash trikotaj to‘qimasi halqalariga cho‘zilish kuchlarining ta‘sirini analitik tahlil qilish uchun, 3 va 4-halqalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik (10-rasm (a)) ko‘rib chiqiladi. 3 va 4 yoki 4 va 5-halqalar orasidagi bog‘liqliklar simmetrikdir. Halqa uzunligi  $L$  bo‘lgan yoy holatida unga ta‘sir qiluvchi kuchlar ostidagi holati aniqlanadi (10-rasm (b)).



**10-rasm. №8 variantdagi trikotaj namunasi halqalarining tuzilishi (a) va cho‘zilish paytida ularga ta‘sir etuvchi kuchlarning sxemasi (b, v)**

8-rasmda keltirilgan sxema asosida lastik 2+1 va hosilali glad to‘qimalarini galma gal qatorlatib bir igna qadamiga surilgan holda to‘qish yo‘li bilan olingan aralash trikotaj halqalariga gorizontal va vertikal cho‘zuvchi kuchlarining ta‘siri natijasida iplarining taranglik kuchlarini aniqlaydigan tenglamalar keltirilgan

$$H = \frac{ql^2}{2(\sqrt{f_1} + \sqrt{f_2})^2} \quad (1)$$

$$Q = H \cdot \operatorname{tg} \varphi = \frac{ql^2}{2(\sqrt{f_1} + \sqrt{f_2})^2} \cdot \operatorname{tg} \varphi \quad (2)$$

Bu yerda

$H$  – gorizontal bo‘yicha cho‘zuvchi kuch, N


$Q$  – vertikal bo‘yicha cho‘zuvchi kuch, N

$q$  – vertikal yo‘nalishda teng taqsimlangan kuch, N

$f_1$  – A nuqtadagi halqa ipining vertikal cho‘zilishi uzunligi, mm

$f_2$  – B nuqtadagi halqa ipining vertikal cho‘zilishi uzunligi, mm  
 $l$  – halqaning eni bo‘yicha ip cho‘zilishi, mm  
 $tg\varphi$  – halqaga cho‘zilish kuchlari ta‘siridagi og‘ish burchagi

Lastik 1+1, ya‘ni №7 variantdagi trikotaj namunasi to‘qimasining halqalariga cho‘zilish kuchlarining ta‘sirini 3 va 4 hamda 4 va 5 halqalari orasidagi halqalarni cho‘zilishi bilan tahlil qilinadi (11-rasm). Bu to‘qimada ikkinchi halqa birinчисiga simmetrik deb olinadi.



**11-rasm. a) №7 variantdagi trikotaj namunasi halqalarining tuzilishi (a) va cho‘zilish paytida ularga ta‘sir etuvchi kuchlarning sxemasi (b)**

11-rasmdagi sxema asosida lastik 1+1 to‘qimasi halqalariga gorizontaal va vertikal cho‘zuvchi kuchlarni hisoblash formulalari keltirilgan.

$$H = \frac{(q_1 a^2 + 2q_2 bl - q_2 b^2)^2}{8q_2 fl^2} \quad (3)$$

$$Q = H \cdot tg\varphi = \frac{(q_1 a^2 + 2q_2 bl - q_2 b^2)^2}{8q_2 fl^2} \cdot tg\varphi \quad (4)$$

Bu yerda

$H$  – gorizontaal bo‘yicha cho‘zuvchi kuch, N  
 $Q$  – vertikal bo‘yicha cho‘zuvchi kuch, N  
 $q_1$  – vertikal yo‘nalishda teng taqsimlangan kuch, N  
 $q_2$  – gorizontaal yo‘nalishda teng taqsimlangan kuch, N  
 $f$  – halqa ipining vertikal cho‘zilishi, mm  
 $l$  – halqa ipining gorizontaal bo‘yicha cho‘zilishi, mm  
 $tg\varphi$  – petlaga cho‘zilish kuchlari ta‘siridagi og‘ish burchagi

Tadqiqot davomida maxsus trikotaj namunalarining 8 ta varianti ishlab chiqildi, ular asosiy va aralash to‘qimalar asosida olingan. Aralash to‘qimalar asosida olingan trikotaj namunalarini tibbiyotda va texnik maqsadlarda foydalanish uchun tavsiya etilish mumkin, shuning uchun ma‘lum xususiyatlarga ta‘sir qiluvchi parametrlarning o‘zgarishi o‘rganildi va regressiya tenglamalari tuzildi.

Ishlab chiqilgan maxsus trikotaj matolarining eksperimental natijalarini statistik qayta ishlash va tegishli ko‘rsatkichlarini prognozlash uchun kirish va chiqish omillari tanlangan. Ushbu qayta ishlash ikki holat uyun amalga oshirildi.

Trikotaj to‘ma tuzilishining quyidagi ko‘rsatkichlari I-tajriba uchun kirish omillari sifatida tanlangan: halqa ipi uzunligi –  $X_1$ , gorizontaal bo‘yicha zichlik –  $X_2$ , halqa qadami –  $X_3$ . II-tajriba uchun kirish omillari: halqa qatori balandligi –  $X_1$ , yuza zichligi –  $X_2$ , qalinlik –  $X_3$ . Ular uchun ikkita parallel tajriba natijalari 3-jadval va 4-jadvalda keltirilgan.

**Jadval-3****I-tajribani rejalashtirish shartlari**

№	Kiruvchi o'zgarmas omillar	Qodlash belgisi	Koeffitsientning haqiqiy qiymatlari			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Halqa ipi uzunligi, (mm)	X <sub>1</sub>	3.5	4.5	5.5	1
2	Gorizontal bo'yicha zichlik, (halqa)	X <sub>2</sub>	30	40	50	10
3	Halqa qadami, (mm)	X <sub>3</sub>	1.2	1.4	1.6	0.2

**Jadval-4****II -tajribani rejalashtirish shartlari**

№	Kiruvchi o'zgarmas omillar	Qodlash belgisi	Koeffitsientning haqiqiy qiymatlari			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Halqa qatiri balandligi, (mm)	X <sub>1</sub>	1.3	1.5	1.7	0.2
2	Yuza zichligi, (g/m <sup>2</sup> )	X <sub>2</sub>	240	340	440	100
3	Qalinlik, (mm)	X <sub>3</sub>	0.9	1.3	1.7	0.4

